

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti**

**“Tarix va arxeologiya”
kafedrası**

**Tarix o'qitish metodikasi
(maruza matnlari).**

Tuzgan: G.Karamanova.

Nukus

MUNDARIJA

Kirish. Maktablarda tarix o'qitish usullari predmeti va uning vazifalari

Tarix o'qitish usullarning shakllanishi va rivojlanishi

Hozirgi tarixiy talim tizimi. Tarix kurslarining talim-tarbiyaviy vazifalari. Maktab tarix kursi darsliklari va dasturlari

O'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish

Fanlar aro va kurslar aro aloqa bog'lash

Maktablarda tarix o'qitish usullari tizimi

Tarix o'qitishning og'zaki uslubi

Tarix o'qitishda bosma matnlar bilan ishlash usuli

Tarix o'qitishning kursatmali uslubi

Tarix o'qitishda texnika vositalaridan foydalanish

Tarix o'qitishda muzey va saexatlar usullaridan foydalanish

Tarix darsi, uning turlari va tuzilishi

Tekshirish va o'qitish natijasini bah'olash

Maktab tarix xonasi (kabineti) va uning tarbiyaviy talimdagi o'rni

Sinfdan tashqari ish

Tarix o'qitishda talabalarni pedagogik tayirlash

Kirish. Tarix usullari predmeti va uning vazifalari

Reja:

1. Tarix va o'qitishning ah'amiyati h'aqida.
2. Tarix o'qitish metodikasi predmeti va uning maqsad vazifalari.
3. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Adabietler:

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat engilmas kuch. T., 2008
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiet yo'li. T., 1992
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq . T.,1998
4. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" 1992.N 7-8.
5. Sadiev A. Maktabda tarix bilimlerinin h'ozirgi ah'voli va o'ni o'qitishni milliy asosga qurish.T., 1993.
6. Sadiev A. O'zbekiston xalqlar tarixini o'qitish.T., 1993.
7. Tashpulatov T. Gafforov Ya., Tarix ukitish metodikasi T.,2002.
8. Karamanova G. Tariyx oqitiw metodikasi H., 2009

Mustaqillik sharofati bilan milliy merosimiz va tengi yuq tariximizni yanada kengroq urganish uchun katta imkoniyatlar buldi. Esh avlodlarni qatanparvarlik, uz ona yurtiga cheksiz muh'abbat ruh'ida tabiyalash, jonajon ulkamiz guzalligi, ananalarga h'urmat kabi fazilarlarni shakllantirish, ularda ijtimoiy faollik, milliy g'urur ezgu tuyg'ularni o'stirish kabi talablar ayni zamonga eng muh'im vazifalardandir. Bu olijonob ishlarni amalga oshirish maktablarda "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish jaraenini tug'ri tashkil etishiga h'am bog'liqdir.

Hech kimga sir emaski, O'zbekiston Respublikasi o'z istiqloliga erishganuga qadar tariximiz deyarli h'amma o'quv tizimlarida nomigagina o'tilar edi. Yana achinarlisi shundaki, ushbu kurs h'am mazmunan h'am tuzilishi jih'atidan ikkinchi darajali h'isoblanardi. Unda ko'xna tariximining h'qiqiy asoslari eritilmagan edi. Bugungi kunda esa yangi yo'nalishlari, tadqiqot qilinishi zarur bo'lgan birinchi darajali masalalari aniq belgilanadi va belgilanmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimovning, tarixga murojat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bulmaganidek, o'z tarixini bilmagan kishining kelajagi h'am bulmaydi deganlari, ayni h'qiqatdir.

Prezidentimiz "Turkiston" gazetasi muh'birining savollariga javoblarida (1998- yil 2-fevrali soni) yana bir qimmatli so'zlarni keltirgan yani : "millatni asrash kerak. millatni asrash uchun esa uning tarixini o'rganish, avaylab h'imoyalash kerak",-degan edi. Ushbu intervyuda "Bizning millatimiz, xalqimiz kuxna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buen o'z h'aeti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi. O'zbek millati O'zbekxon nomidan tarqagan emas, balki O'zbekiston o'zbek nomini o'ziga ism qilib olgan bo'lsa ajob emas"-delinadi. Bu qatorlarning mazmuni orqali biz tarixchilarning oldida h'ali tadqiqotni, urganishini talab qiladigan, h'qiqatni ochib beradigan muammolarni h'al

qilishdek vazifani anglashimiz kerak. U navbatida h'aqiqiy tariximizni uqitish orqali o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini, vatanga sadoqat, tuyg'usini shakllantirish amalga oshiriladi.

Milliy g'oyani shakllantirishda h'am tarix fanining o'rni kattadir. "Milliy g'oya birinchi navbatda h'esh avlodimizni vatanparvarlik, elyurtga sadoqat ruh'ida tarbiyalash, ularning qolbiga insanparvarlik va odomiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijonob ishlarimizda madatkor bulishi zarur "tafakkur" №2. 1998.


2. Umuman tarix uqitish usullari ilmiy pedagogik fan bulib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni vatanparvarlik ruh'ida kamol toptirish va tarbiyalashda maktabda unitiladigan tarix kursining maqsadi, talim-tarbiya vazifalari, mazmuni, usullarini h'amda o'qitishning eng muh'im vositalarini belgilab beradi.

Tarix o'qitish usuli uzining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Maktabda tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jaraenining urganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jaraenining obektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor.

Tarix o'qitish jaraenining tarkibiy qismlari maksimal, mazmuni, o'qitishining metod va usullari, natijalari urtasidagi qonuniyatli aloqalari qo'yidagicha namoen bo'ladi:

Tarix kursining maksimal, talim tarbiya vazifalarining muvafaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga bog'liq bo'lgandek, tarix kursini uzlashtirish darajasi h'am o'z navbatida o'qitishning ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga, o'qituvchining urganiladigan mavzunan maqsadi, talim tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan talim formalari, o'qitish usullari h'amda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishning natijalari h'am o'qituvchining o'qitishdan kuzlangan maqsadni, uning talim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga erdam oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishga bog'liqdir.

Professor P.V.Gora tarix o'qitish usuli dasturi va maruza kursining ilmiy asoslariga bag'ishlangan maruzasida M., 1992. 42-43- butlar) maktabda tarix talimi jaraenining umumiy qonuniyatlarini qo'yidagi chizmada ifodalab ularning h'ar qaysisiga izoh' beradi:



Tarix o'qitishning asosiy maqsadi, albatta o'tmish tarixni urganish va Vatanga sodiq jamiyat kishisini tarbiyalashdan iborat.

Tarixni o'qitish deganda-tarixiy material vaatnga munosib ruh'da tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jaraen, yangi o'qituvchi va uqivchilarning aqliy ichki h'amda o'quv h'arakatlari tashqi jaraeni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda tarix dasturlarida belgilab berilgan tarixiy bilimlar kulami, o'quv materiali; uning asl mazmunini umumlashtirishi uquvchilarning tarixiy materiallari uzlashtirish va olgan bilimlarini foydalana bilish soh'asidagi o'quv usullari, kunikma va malaqalar sistemaisni egallashlari kuzda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni urganishni tashkil qilish, ularning urganish faoliyatini o'qituvchining boshqarishiga erdam beradigan usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarini ishga solish va ularni ijodiy bilishga junaltiradigan topshiriqlar tizimi h'amda talimning turli xil formalari dars, amaliy mashg'ulotlari tushuniladi.,

Tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fan asoslarini tarixiy materilga mos samorali metodlarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta uzlashtirishlari, shu assoda yangi jamiyat kishisining zaruriy sifatlarni tabiyalash o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini ustirish kuzda tutiladi.

Demak, o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi, maqsadi va mazmuniga mos keladigan o'qitish usllari tanlanadi, o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan qatiy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, yani tarixiy bilimning sifati, tarbiya va o'quvchilarning kamol topishi darajasi bilan ulchanadi.

Talimni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi maktabda tarix uqitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan talim-tarbiya vazifalarini bilib olishining o'zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda h'ar bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rni, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursining o'qitishning talim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning h'ar bir bo'limi, bulimdagi mavzular h'atto h'ar bir darsda utiladigan mavzuning h'am asosiy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki h'ar bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar tizimida tutgan o'rni bor, bu darsda maktabda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi eki bo'lagi h'al etiladi.

Tarix o'qitish usullari o'qitish jaraenin tarkibiy qismlari ular o'rtasidagi qatiy takrorlanadigan o'zaro aloqa va bog'lanishlarda nomoen buladigan qonuniyatlarni ochib beradi va tarix o'qitish jaraenini takomillashtirishda ulardan foydalanig yo'l-yo'riqlarini h'am ko'rsatib beradi. Tarix o'qitish jaraeni ikki yo'l bilan o'rganiladi: 1. kuzatish usuli. Bu usulda foydalanganda, turli xildagi o'quv metodik adabietlar, o'quvchilarning ezma ishlari, maruzalari, ularning javoblari ezilgan kuchirmalar, o'qitishga berilgan bah'o va chiqarilgan xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalar o'rganiladi.

2. Tadqiqot usuli. O'qituvchi o'qitish jaraenini o'zi h'oxlaganicha uyushtiradi. O'nga bazi o'zgarishlar kiritadi, natijasini tekshirib kuradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tadqiqotga uxshab ketadi. Taniqli pedagog Suxomlinskiy: "Pedagogik meh'nat ilmiy

tadqiqotga yaqin turadi” degan edi. Biroq, o’qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarining ilmiy tadqiqotdan farqi, avvalo, shundaki o’qituvchi darsda amaliy vazifalarni h’al qilishi uning xulosalari esa, o’z faoliyatining natijasi bo’ladi. Ilmiy tadqiqotda ko’pchilik o’qituvchilarni ishi uchun umumiy bo’lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi.

3. Tarix o’qitish metodikasi tarix fani bilan uzviy bog’langandir. Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiet qonunlarini bilish utish h’ozirgi zamoni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan qurishga imkon beradi.

Tarix o’qitish usuli maktabda tarix o’qitish jaraenining tarkibiy qismlari va ular o’rtosidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o’qitishning samorodorligini oshira borish maqsadida tarix o’qitish jaraenini tadqiq etish usullari bilan h’am qurollantiradi.

Tarix fani asoslarini ochib berish maqsadida tarixiy manbalar, faktlar va umumiy xulosalardan foydalaniladi.

Tarix o’qitishda o’quvchilarning eshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman ruh’iy faoliyatini etiborga olmasdan turib, ularning o’quv faoliyatiga samarali tasir etib bo’lmaydi. Shu sababli uslub ruxshunoslik (psixologiya) fani bilan chambarchas boqlangan.

Uslub talim-tabiya h’aqidagi pedagogikal fani, uning tarkibiy qismi bo’lgan dialektika bilan chambarchas boqlangan, uning mustaqil bir tarmog’idir.

Tarix o’qitish usullarining shakllanishi va rivojlanishi

(2 soat)

Reja:

1. Tarix o’qitish usullari masalasiga tarixiy endashish.
2. 1917 yildan 1991 yilga qadar tarix o’qitish.
3. Mustaqillik yilarida tarix o’qitish muammolari.

Adabietlar:

1. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiet yo’li.T., 1992
2. Asqarov A. O’zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari. – «O’zbekistonda ijtimoiy fanlar». T., 1992 O’ N 7-i
3. Sadiev A. O’zbekiston xalqlari tarixini o’qitish.T., 1993
4. Sadiev A. Maktabda tarix bilimlarining h’ozirgi ah’voli va uni o’qitishni milliy asosga qurish.T., 1993

Metodikaning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy va siesiy tarix bilan, tarixiy va pedagogika ilmlarining rivojlanishi bilan bog’liq.

Metodikada to’plangan tarixiy tajribani o’rganish bugungi kundagi tarixiy talimning murakkab va dolzarb muammolarini ilmiy, h’aqiqiy echimini topishga erdam beradi.

Maktabda tarix predmet sifatida o'qitila boshlaganidan keyin o'qitishning maqsadi va mazmunini belgilash, uni eshlarga tushuntirish soh'asidagi savollarga amaliy javob berish zaruriyati ostida tarix o'qitish metodikasining dastlabki elementlari yuzaga kela boshladi.

XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida tarixiy bilim beradigan xususiy maktablar paydo bo'ldi. Yirik shah'arlarda jamoatchilik pedagogik tashkilotlar vujudga keladi.

Maktab tarixiy talimining rivojlanishida P.G.Vinogradov, N.I.Kareev, S.F.Platonov kabi tarixchilar-"liberal" yo'nalishda to'rdi. Ularning darsliklarida jamiyatning siesiy, tarixiy-madaniy turmush h'aet, iqtisodiy rivojlanish bo'yicha faktlar berildi. O'lar tarix o'qitishda kursatmali obrazli o'qitish usullarini va o'quvchilarning fikrlashini faollashtirishni tavsiya qilgan.

M.N.Pokrovskiy, N.A.Rojkov, M.N.Kovalenskiy va boshqalar "radikal" yo'nalishda deb qaralgan. N.A.Rojkov darsliklarida 1- o'ringa manba, h'ujjatlarni qo'yib, ular bilan ishlash o'quvchilarning aqliy mustaqilligini o'yg'otishi kerak edi. Kovalenskiy 5 jildli xrestomatiyasida va darsligida iqtisodiy va sinfiy kurash masalasiga ko'proq etibor qiladi.

Sotsiologik maktab vakili R.Yu.Viller-umumiy tarix bo'yicha darsliklarida induktiv metod asosida sotsiologik tushunchalarni va tarixiy jaraen qonuniyatlarini ochishni tavsiya qiladi.

O'quvchilarning bilish ischanligini faollishtirishda o'qitishning "real", "laboratoriya", "referat", "dramatizatsiya" metodlari qo'llanildi.

XX asr boshida tarixiy manbalar asosida tarix o'qitishning "real" metodi tiklandi. M.N.Pokrovskiy va N.A.Rojkovlar uning tarafdorlari bo'ldi.

Laboratoriya metodi o'quvchilarning tarixiy h'ujjatlar va ilmiy ommabop adabietlar bilan mustaqil ishlashiga asoslandi.

Referat metodining astoydil targ'ibotchisi N.P.Pokatilo bo'ldi. O'ning fikricha o'quvchi referat orqali bosh manoni ikkinchi darajalidan ajrata oladi. U referatni mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishning asosiy usuli deb h'isobladi., Dramatizatsiya metodi A.F.Gartvich tomonidan tasvirlanadi. O'nda o'quvchilarga tarixiy materiallarini rollarbo'yicha o'qish tavsiya qilindi. Usullar h'a'r xil bo'ldi: badiiy va ilmiy ommobap dabietlar asosida tarixiy voqeani instsenirovka qilish, materialni mutah'kamlash uchun darsda eshitganlarini dramalashtirish va h'akozalar. O'quvchilarda o'qitishda aniq obrazlarni shakllantirish tarix darslari uchun karta va kartinalarning ishlab chiqilishiga olib keldi. O'qitish jaraenining ajralmas bo'lagi sifatida ekskursiya ishlari paydo bo'ldi. Tarixni o'rganishda o'lkashunoslik materiallari h'am jalb qilina boshladi.

XIX asrning oxiri XX asr boshida o'qituvchilar uchun birinchi uslubiy qullanmalar paydo bo'ldi. Nijegorodli o'qituvchi A.Krolyunitskiyning "Tarixning elementar kursi metodikasi tajribasi" tarixni o'qitish masalasi bo'yicha qimmatli maqalolardan iborat bo'ldi.

N.P.Pokatiloning "Boshlovchi o'qituvchi uchun amaliy boshchilik" (Spb, 1912), kitobida o'z davri uchun etakchi tavsiyanomalar berildi. Qo'llanmada qo'shimcha berilgan bo'lib, unda darslik qullanmalar, badiiy, ilmiy-ammabop va uslubiy adabietlarning tizimi berildi.

XIX asr oxiri- XX asr boshida h'ar xil tipdagi darsliklar, kitoblar, ko'rsatma qurollar chiqarildi, lekin metodika ilmiy-nazariy umumiyashtirish darajasiga ko'tarila olmadi.

Shurolar h' o'qimiyati o'rnaganadan keyin xalq talimi h'am mustamlakachilik tizimiga moslashtirildi. 1929 yilda eski imloning avval lotin imlosiga, keyin rus imlosiga o'tishi eshlarning madaniyat va avlodlar boy tarixiy merosidan mah'rum bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Maktablardan talim-tarbiya milliy zamindan uzib tashlandi. Bunday siesatga norozilik bildirganlar millatchilikda ayblanib, taqib ostiga olindi, 191i yilda Toshkentda ochilgan musulmon xalq dorilfunonini va uning xodimlari taqdiri shunday bo'ldi. 1920 yilda Turkiston xalq dorilfununi tugatilib, u O'rto Osie davlat universitetiga qo'shib yuborildi. Uning mudiri va o'qituvchilarining aksariyat ko'pchiligi xalq dushmoni-jadidchi, panturnizm g'oyasi targ'ibotchisi, millatchi tashg'asi bosilib, qatog'on qilindi. Shu dorilfunun mudiri, olim, ezuvchi va shoir, otashin marifatparvar, ijtimoiy-siesiy h'arakatlarning faol ishtirokchisi Mukovvarqori Abdurashidxonov h'isobga olinib, otib tashlandi.

20 yillar oxirlariga kelib, mamuriy buyruqbozlikka asoslangan mustabid markaz uzil-kesil shakllanib ulgirdi. Maktab tarix bilimlari tizimi h'am xuddi shu yillarda yani 30-yillar boshida shakllandi. Xalq talimiga rah'barlik qilishdagi demokratik printsip butunlay buzildi. Tarix o'qitish o'rganishni bir xil tizimga solib, uni siesat manfaatiga bo'ysindirishda partiya va davlat rah'barlarining tegishli qarorlari h'amda ko'rsatmalari asosiy rol o'ynadi. Fanlar bo'yicha yagona, maxsus va majburiy h'amda barqaror darsliklarning bo'lishi, markazda rus tilida nashr qilinishi, joylarda, tarjima qilib, o'qitishni mamlakat miqiesida maktab talimiga vasiylik qilish va uning ustidan siesiy nazoratning kuchaytirilishi eshlarni davlat siesati, yagona partiya g'oyasiga sodiq kishilar qilib tayarlashni ko'zda tutar edi.

193i yilda "VKP(b) tarixi qisqa kursi" darsligi nashr qilinib markazda nashr qilingan barcha darsliklarga, shu jumladan tarix darsliklariga shu darslik tizimi asos qilib olindi.

Shu tariqa, 20 yillar oxiri 30 yillarning boshlariga kelib, maktab tarix bilimlari tizimi shakllandi. 40 yillarda esa darsliklar yaratildi. Bunda davlat siesatiga moslangan, yagona partiya g'oyasi singdirilgan darsliklar yaratildi. Umuman davlat siesati umrini iloji boricha uzoqqa cho'zish asosiy maqsad qilib quyilgan ei. 1934 yildan etiboran sobiq SSSR miqiesida, shu jumladan O'zbekiston maktablarida tarix qo'yidagicha o'qitildi:

III-IV sinflarda SSSR tarixining qisqacha kursi, V-VI sinflarda qadimgi dune va o'ta asrlar tarixining elementar kursi, VIII-X: sinflarda SSSR tarixi va yangi tarix kursi; Keyinchalik eng yangi tarix kursi kiritildi. O'zbekiston xalqlari tarixi mustaqil fan sifatida o'qitilmay, balki undagi bazi voqealarnigina Rossiya tarixi tarkibida o'qitish, eshlarni ajdodlarimizning boy merosidan, ananlaridan mah'rum etish maqsadida ularni chetga surib qo'yish ana shu davlat siesatining erqin ifodasi natijasi edi. Msunur darsliklarda tarixiy faktlar va nomlarga to'ldirib yuborgan edilar. Bazi muh'im tushunchalarning mazmuni chuqur ochib berilmasdan, ko'pincha ularga qisqacha izoh' berish bilan kifoyalanilgan edi, ularda o'quvchilarni mustaqil ishga rag'batlantiruvchi sovallar va vazifalar h'amda tarixiy 9ujjatlardan namunalar berilmagan edi.

Maktab tarix o'qitishning shakl va usullarini h'am ishlab chiqishni h'am talab etdi. 1939 yili V.N.Bernadskiyning "Yuqori sinflarda tarix o'qitish metodlari" H(L.a'9q9), a'9n'o' yilda N.V.Andrevskaya bilan V.N.Bernadskiyning "Etti yillik maktablarda tarix o'qitish metodikasi" va boshqa uslubiy qo'llanmalar nashr etildi va o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Jumh'uriyatimizda 191i yil dekabr oyidan boshlab nashr qilina boshlangan "Maorif (h'ozirgi xalq talimi)" jaridash maktabda tarix o'qitishni yo'lga qo'yish va o'qituvchilarning

pedagogik mah'oratini oshirishda muh'im ah'amiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda tarixiy uslubiy fikrlarning taraqqietida 1940 yil avgustda O'zbekiston Moarif Vazirligi h'uzurida tashkil etilgan tarix va jamiyatshunoslik o'quv-uslubiyat kengashi tarix seksiyasining faoliyati h'am katta ah'amiyatga ega.

U darsliklar tarjimasi va qo'llanmalarning narsh qilinishiga etibor berildi.

1941 yil 22 iyundan Vatan urushi boshlandi. Bu yillikda mamlakat tarixinigina emas, balki jah'on xalqlari tarixini h'am chuqur o'rganish aloh'ida ah'amiyat kasb etdi. 1942 yilda Yu.S.Sokolovning uslubiy qo'llanmasi nashr etildi. (Sokolov Yu.A. Ulug' Vatan urushi va o'rta maktabda qadimgi dune o'rta asrlar h'amda yangi tarixni o'qitish vazifalari UzSSR maorif xalq kommissarligining maktab boshqarmasi Uzbavnashr T.1942. Ammo bundan keyin h'am talim mazmuni saezlashib, u asosan ijtimoiy iqtisodiy jaraenlar sinfiy kurash va ommaviy h'arakatlar doir mavqum va murakkab tushunchalar majmuldan iborat bo'lib qolaverdi. Tarixning bu taxlitda o'qitilishi o'quvchilarning ijodiy fikrlashga to'sqinlik qildi, tarixiy jaraenni tarixiy tarzda tasavvur qilishdan nariga o'tmadi.

O'quvchilarning darsda material mazmunini yaxshi tushunolmay, uni edlab olish ularning fikr doirasi kengayishiga to'sqinlik qiladi.

Maktabda tarix o'qitishning yangi tartibi amalga oshirildi. SSSR tarixi dasturiga birinchi marta kiritilgan O'zbekiston tarixi materiallarini tanlash printsiptini takomillashtirish, uni o'rganish asoslarini ishlab chiqish, o'quv-uslubiy adabietlar yaratilishida 1940 yil avgustdan o'z faoliyatini boshlagan. O'zbekiston maorif Vazirligi qoshidan o'quv uslubiy kengashi, tarix seksiyasi muh'im rol o'ynadi. Shu seksiya azolari K.O.Oqilov, N.V.Teyx tomonidan 1960 yida IV sinf o'quvchilari uchun O'zbekiston tarixiga oid 26 h'ikoyadan iborat qo'llanma yaratildi. (T.1961), Sektsiyaning azosi R.K.O'rmonova esa 1963 yilda VII sinf tarix o'qituvchilari uchun O'zbekiston tarixidan qo'llanma yaratildi. (M."Voxatov, K.E.Jestov, B.T.Dagtler O'zbekiston SSR tarixi O'zbekiston maktablarining VIII sinf o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma T. 1964). Shu yil K.O.Oqilovning ezgan sakkiz yillik maktablarning VII cinflari uchun o'quv qo'llanmasi nashr etildi.

Shunday qilib 60 yillarining o'rtalariga kelganda O'zbekiston tarixi bo'yicha bazi qo'llanmalarni yaratishga muvofiq bo'lindi. 1965 yil may oyida maktabda tarix o'qitish tartibini o'zgartirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

1966-1967 yillarda o'rta maktablarning VII-X sinflari uchun O'zbekiston tarixi bo'yicha yangi o'quv qo'llanmalari yaratildi. (Ya."ulomov, R.Nabiev O'zbekiston SSR tarixi O'zbekiston maktablarining IX-X sinflari uchun o'quv qo'llanma T, 1966)/

1971-yilda pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarning mavofiqlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi va O'zbekiston maorif Vazirligining buyrug'i bilan "O'rta maktabda O'zbekiston SSR tarixini o'qitish muommasi bo'yicha olib borilaetgan ilmiy tadqiqot ishlariga rah'barlik qilish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika oliygoh'i tarix qulmietetida tashkil etilgan. Tarix va jamiyatshunoslikni o'qitish uslubieti kafedrasiga yuklatildi. Bunda O'zFA akademigi Ya."ulomov katta xizmat qildi.

Tarix talimini o'z vazifasini h'ozirgi milliy maktab talabiga javoban bajara almadi. Undan kamchiliklar asosan uch guruh'ga bo'linadi.

1) Tarix talimi mazmunining yagona mafkura iskanjasiga tushib qolganligi uning inqirozning asosiy sabablaridan biri edi.

2) Bu h'ol uning mazmunan saezlanishi bilan birga egasiz h'amda mavqum va zerikarli tafsilotlarga aylanib qolishiga sabab bo'ldi. Ajdodlar tarixi ularning shon-shuh'rati va jabr-jafolari h'aqidagi erqin xotiralar tarix darsliklarida o'z ifodasini topa olmadi. Tarixiy bilimlarning bir xil yo'nalishi va tizimga solib qyo'ilishi o'quvchilarning ijodiy fikrlashga, fikr doirasi kengayishiga to'sqinlik qildi.

3) Tarix kursining tkzilishi uni o'qitish o'rganish tartibini milliy asosga qarshi printsipining buzilishi va bu narsa pedagogika-didaktika talablariga javob ermasligi yana bir kamchiligidir. Sobiq SSSR xalq talimi davlat qo'mitasi raisi G.A.Yagodin 1988 yil dekabrda shu soh'adagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri milliylik printsipidan voz kechilganligi bilan bog'liqligini ko'rsatib bunday degan edi:

“Talim-tarbiyani milliy madaniyatdan ajralgan h'olda yo'lga qo'yish o'quvchilarni nasl-nasabini namalum kishilar, deb h'isoblash demakdir. Ayni milliy o'zligini anglab etmaganalik, milliy va madaniy masalalarda tayergarlikka ega emaslik millatlararo munosabatlarda buzilishlar milliy xudbinlik ko'rinishlari uchun ko'pgina qulay zaminni vujudga keltiradi.

SSSR tarixi darsliklari talay darajada qamon rus xalqining, rus davlatchiligining tarixi bo'lib qolmoqda” (Yagodin G.A. talimni insonparvarlashtirish va demokratiyalash orqali uning yangi sifati sari ”Sovet O'zbekistoni” a'9h'h'.g'g'-dekabr).

Maktablarda tarix o'qitishni Evropa xalqlari tarixidan emas, balki O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu pedagogik didaktik ilmiy printsipga h'am mos keladi. Balki jah'on xalqlari tarixini o'rganishni o'quvchilarning O'zbekiston xalqlari tarixidan olgan bilim va ko'nikmalariga suyangan h'olda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

1 yo'l. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganib bo'lgandan keyin jah'on xalqlari tarixini o'rganish.

2 yo'l. O'zbekiston xalqlari tarixini taraqqietdagi malum davrlarni jah'on xalqlari tarixi taraqqietining ana shu davrdagi bog'lab, birgalikda qiesiy o'rganish. Ana shu 2 yo'l tarix bilimlari yangi kontsepsiyasiga asos qilib olindi.

Prezident I.A.Karimov ”O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiet yo'li” asarida: “yangi demokratik talim kontsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika xududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy tarixiy va madaniy ananalari, manaviy tajribasi talim va tarbiya tizimimizga o'zviy ravishda kiritilishi zarur”, -degan fikrlari pedagoglarimizni tarix talimini davr talabi darajasiga ko'tarish yo'lidagi muh'im vazifalari bo'lmog'i kerak.

**Hozirgi tarixiy talim tizimi. Tarix kurslarining talim-tarbiyaviy vazifalari.
Maktab tarix kursi darsliklari va dasturlari. (2 soat)**

Reja:

1. Tarixiy talim tizimidagi o'zgarishlar 11 yillik talim maktablari uchun tarix bo'yicha dasturlar. Vatan tarixini o'rganishga etiborning kuchaytirilish ah'amiyati.
2. Tarix kurslarining talim-tarbiyaviy vazifalari.
3. Maktab tarix darsliklari mazmuni va tuzilishi.

Adabietlar:

1. Gaffarov Ya, G'afforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996.
2. O'zbekiston tarixi va madaniyati.T., 1992
3. Mustaqil O'zbekiston-tarix silsilolarida.T.,1992
4. Kabirov A, Korovkin F Jah'on tarixi.T., 1995
5. Muxammedjonov A.R. O'zbekiston tarixi. (V asrdan XXI asrning boshigacha)T., yshshe
- 6.Raximov J. O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish.T., 1995
7. O'zbekiston tarixi. (1917-1993)N., 1995
- 8.O'zbekiston tarixi (I qism) T., 1997

1984 yili umum talim maktab isloh'atiga muvofiq 11 yillik talim kirgizilib, bu tarixiy talim tizimida h'am o'zgarishlarga olib keldi: V sinfda : "SSSR tirixi bo'yicha epizodik h'ikoyalar" h'aptasiga 2 soat, jami 6i soat;

VI sinfda: Umumiy tarix :I bo'lim. Qadimgi dune tarixi:-8 aptasiga 2 soat, jami 6i soat:

VII sinfda: Umumiy tarix II bo'lim: O'rta asrlar tarixi-h'aptasiga 2 soat, jami 6i soat.

VIII sinfda: Qadimgi davrdan XVIII arning oxirigacha bo'lgan SSSR tarixi-h'aptasiga 2 soat, jami 6i soat.

IX sinfda Umumiy tarix III-bo'lim. Angliya burjua inqilobidan (XVII asr) Parij kommunasigacha; XIX asrdan boshlab XIX asrning oxirigacha bo'lgan SSSR tarixi-h'aptasiga 3 soat, jami 102 soat. X sinfda: Umumiy tarix III bo'lim Parij Kommunasidan 1-jah'on urushining tugatilishiga qadar; XX asrning oshidan 193i yilga qadar SSSR tarixi; Umumiy tarix IV bo'lim 1917-yildan boshlab 2-jah'on urushiga qadar chet el eng yangi tarixi-h'aptasiga 4 soat, jami 136 s). XI sinfda: "q0-yillarning oxiridan bizning kunlarimizga qadar SSSR tarixi"; Umumiy tarix IV bo'lim 1939 yildan bizning kunlarimizga qadar chet ellar eng yangi tarix.-h'aptasiga 3 soat, jami 104 soat.

Umum talim maktablarda (11 yillik) tarixini o'rganish uchun h'aptasiga 1i soat, yiliga 612 soat ajratildi. Shuni h'am aytish kerakki, sobiq ittiyoq tarkibiga kirgan respublikalar tarixini o'rganish 50 soatdan oshmasligi kerak edi. Faqat mustaqqil marofati bilan tarixiy talim soh'asida o'zgarishlar bo'ldi.

Prezidentimiz "Tafakkur" jurnaliga bergan intervyusida Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun e h'aet-e mamot, e noxot-e h'alokat, e saodat-e falokat masalasidir" degan fikrini keltirip o'tadi. Sababi bu so'zlar bugun h'am dolzarbdir. Prezidentimiz takidlaganidek, "Fikr qaramligi, tafakkur qulligi-h'ar qanday iqtisodiy eki siesiy qaramlikdan h'am ko'ra dah'shatlidir", ""oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jah'olatga qarshi faqat marifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin".

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida ildiz otgan Turkiston jadidlari eshlarning milliy tafakkurini o'stirish, duneviy ilimlarni egallash uchun jon uydirdi. Bolsheviklar imperiyasi davrida yagona ideologiya g'oya asosida talim-tarbiya soh'asida milliy mentolitet bir tomonda qolib ketdi. Fikr qoromligi esa yuqorida takidlaganimizdek h'ammisidan h'am dah'shatli. Mustaqilligimiz ana shu h'islotlarga tarbiyalaydigan, yani eshlarimizning etuk milliy tariximizni, ananalarimizni zur qiziqish bilan egallashlari uchun sharoit berdi. Shu asosda "O'zbekiston tarixini o'qitish bo'yicha kontseptsiya" ishlab chiqildi. Yangi dasturlar vujudga keldi. Bu dasturlarda vatan tarixini urganisha katta etibor berilgan. Nafaqat yangi tariximiz, bilki bizning qadimgi va juda boy tariximiz saxifolarini tadqiq qilishimiz, topishimiz, urganishimiz vazifa etib belgilangan. Yangi tarixni h'aqqoniy yaratish, tug'ri davrlashtirish muh'im meh'nat talab qiladi.

Tarix fani obektiv suratda amal qiladigan qonunlarni ochib berish maqsadida kishilik jamiyatining taraqqiet jaraenini o'rganadi bu qonunlarni bilish o'tmishni va h'ozirgi zamoni ilmiy asosda yaxshiroq tushunib olishga h'amda kelajakni oldindan ko'ra bilishga va o'ni ongli ravishda ko'rishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi "Talim tug'risida" gi qonunning 4-moddasida: "O'zbekiston respublikasida kelib iqishi, jinsi, tili, eshi, irqi, millati, etiqodi va dinga munosabatidan, ijtimoiy ah'voli, mashg'ulotining turi, turar joyi, respublika xududida qanchadan beri yashaetganligidan qat'iy nazar barchaning talim olishi uchun teng h'uquqlari kafolatlaydi"-deb ko'rsatilgan.

Mustaqillikgacha O'zbekiston xalqlari tarixi V, VIII-XI sinflarda SSSR tarixi tarkibida o'rganilar edi. Endilikda mustaqillik morofoti tufayli O'zbekiston xalqlari tarixini aloh'ida o'rganish bilan birga, o'nga ulkamiz tarixini urganiuvchi "o'lkashunoslik", "arxeologiya", "etnografiya" va boshqa bir qancha fanlar qushildiki, bu fanlar tariximizni umumjah'on tarixi fani bilan yaqindan bog'lanishga katta erdam beradi.

2. Maktab tarix dasturlarida tarix kursining talim va tarbiya vazifalari, mazmuni, o'quvchilarning o'zlashtirib olish zarur bo'lgan asosiy tushunchalar va g'oyalar, kunikmalar va malakalar miqdori aniq belgilab berilgan. Unda maktab kursining talim va tarbiya vazifalari qo'yidagicha ifodolab berilgan.

Birinchidan: o'quvchilarni qadimgi amonlardan to h'ozirgi kunimizgacha bo'lgan jamiyat taraqqieti tug'risida puxta va chuqur bilimlar bilan qurollantirish.

Ikkinchidan-aniq asosli materiallarni tah'lil qilish va umumlashtirish asosida ular uchun tushunarli formada ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy tushunishni h'osil qilish;

Uchinchidan-tarixning chinakkam ijodkorlari, moddiy va manaviy nematlarni yaratuvchi-xalq ommasining roli h'amda shaxsning tarixdagi ah'amiyati.

To'rtinchidan-o'quvchilarni ilmiy obektivlik, tarixiylik qonunlariga asoslangan h'olda o'tmishdagi va h'ozirgi zamon h'odisalariga ilmiy qaray bilishga o'rgatish.

Beshinchidan-o'quvchilarni xaqlar tinchligi. h'amkorligi, bir-birini tushunish va h'urmat qilish ruh'ida shovinizm va millatchilikka, militarizm va urushni targ'ib qilishga, kamsitish va irqiy ustunlikka qarshi murosasiz kurash ruh'ida tarbiyalash.

Oltinchidan-o'quvchilarda meh'nat tarbiyasini amalga oshirish, ularni moddiy ishlab chiqarish soh'asidagi ishlarga psixologik jih'atdan tayirlash, meh'natning barcha- turlari va

uning natijalariga h'urmat, ularni o'z shaxsiy qobiliyati va jamiyat eh'tiejariga qarab ongli ravishda kasb tanlashga tayerlash.

Ettinchidan-o'quvchilarning ijodiy fikrlashni, ularning bilim egallashdashgi faolligini, mustaqilligini rivojlantirish, ishlab chiqarishga, fanga, sanatga qiziqishlarini rag'batlantirish, o'z bilimlarini mustaqil to'ldirish, h'ozirgi zamon siesiy h'aet voqelarini tug'ri tushunish, ko'nikma va malakalarini singdirish lozim. Ayniqsa umumtalim maktablari dasturlarida O'zbekiston tarixi tuzulishi va urganilishiga aloh'ida etibor berish kerak. Buning uchun qo'yidagilarga biroz jalb etish lozim.

-O'zbekiston tarixi bo'icha tanlangan dastur materiali mazmuni va miqdorini o'quvchilarning bilish imkoniyatlari h'amda uni o'rganish uchun ajratilgan vaqtda mos bo'lish, shu bilan birga respublika tarixi uchun mos bo'lgan eng muh'im asoslar va tushunchalarni tanlash.

-O'zbekiston tarixini o'rganishda doimo o'quvchilarning boshqa fanlardan va umumiy tarixdan olgan asosiy va nazariy bilimlariga suyanish, h'amda takrorlashga yo'l qo'yilmagan h'olda respublika tarixi materiallari asosida ularning bilimlarini aniqlashtirish.

-O'zbekiston davlat tarixini o'rganishning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, eng avvalo duneqarashga doir etakchi g'oyalarni, umumiy qonuniyatlarni, ularning asosini tashkil qilgan xalqimiz soib o'tgan tarixiy yo'lni ochib berish lozimdir.

Shuni h'am aytib o'tish kerakki, h'ar bir tarix darsining o'z oldiga qo'yilgan malum-tarbiyaviy vazifalari turadi. Prezidentimiz I.A.karimov "Turkiston" muxbiriga intervyusida: "Buyuk ajdodrimiz yuksak taraqqiy topgan davlat barpo etgani va bu mamlakatda "kuch-adolatda" degan bosh shior davlat siesatining, jamiyat h'aetining asosi bo'lganini yaxshi bilamiz. Bu g'oya odamlarga kuch bergan, ularda insof-dienatga, ezgulikka ishonch uyg'otgan. Chunki jamiyatda adolat barqaror bo'lsa millat, xalq h'ech qachon yo'ldan adashmaydi, ertami-kechmi farovon turmushga erishadi" degan edi. Bu buyuk Amir Temur davriga xos tarixiy h'qiqat umum talim maktablarida VII sinflar uchun "O'zbekiston tarixi" darsligi orqali o'rganiladi. "Amir Temur davlati" mavzusidagi darsning o'zida adolatparvorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik to'yg'ulariga tarbiyalash vazifasini amalga oshirishimiz mumkin. Masalan, soliq siesatidagi Amir Temurning insoniyligi misollar bilan kursatilishi mumkin.

3. Hozirgi vaqtda tarix fani oldiga katta vazifalar qo'yilgan bir davrda maktab tarix darsliklari mazmuni katta ah'amiyat kasb etadi.

1994 yilda qator O'zbekiston tarixi darsliklari V,VI,VII,VIII,IX sinflar uchun chiqarildi. Lekin davr talabiga xos darsliklar yana h'am yaxshilanish nazarda tutilib, 199i-2000 yillarda yangi tarix darsliklari chiqarildi.

5-6 sinflar uchun "jah'on tarixi" darsligi mualliflari A.Kabirov va F.Korovkinlar. Uning 5- sinfga talluqli yani I bo'limda "Qadimgi jamoa tuzumi" o'rganiladi. Bu tuzimning rivojlanish bosqichlariga etibor beriladi: "odamlar tudasi", "ovchi va deh'qonlarning urug' jamoalari", qadimgi jamiyatning inqirozi, meh'natning o'z-aro taqsimlanishi, uning roli h'aqida malumot beriladi. II bo'lim: "Insoniyatning qadimgi tarixi" deb nomlanib, Qadimgi Misr, Qadimgi Janubiy-"arbiy Osie ellari, Qadimgi Kichik Osie va Kavkaz orti o'lkalari, Qadimgi Eron, Hindiston, Xitoy, Gretsiya (Yunoniston), Rim va Rim imperiyasi tarixi berilgan.

Masalan: "Qadimgi Janubiy-"arbiy Osie ellari" degan bobda "Ikki dare oralig'i (Mesopotamiya) tarixi asosiy o'rin egallaydi. Tabiiy sharoitlari, xo'jaligi sinfiy jamiyatning vujudga kelishi so'z etiladi. "Davlat", "shah'ar", "qonun" kabi tushunchalar ochib beriladi.

VI bob yani Qadimgi Hindiston mavzusidan boshlab VI sinfda o'tildi. So'nggi XI bob "Rim imperiyasining susayishi va qulashi" deb nomlanadi. II va III asrlarda Rim saltanati" degan temada qul meh'natining natijasizligi, quldorlik-xo'jalik rivojlanishidagi tusqin ekanligi ochilishi kerak. Varvarlar bosqinchiligi, 476- yilda german qobilalari tomonidan "arbiy Rim saltanatining tugatilishi so'z etiladi. Madaniyati, sanati, diniy etiqodlar qadimgi mavzular bilan darslik tamomlanadi.

O'rta asrlar tarixini urgana utirib, feodal tuzum, uning kelib chiqishi, rivojlanish va tarqoqlanish", "feodal jamiyat sinflari", "feodal davlat", "o'rta asr madaniyati" va boshqa asosiy tushunchalar shakllantiriladi.

Shunday qilib, darslik-bu uqituvchining tayanadigan asosiy o'qitish quroli va asosiy bilim manbai h'isoblanadi. Tarix darsligi birnecha komponentlardan turadi: tekst (motn) (asosiy, qo'shimcha, tushuntirish); matndan tashqari komponentlar; uzlashtirishni tashkil qilish apparati, illyustrativ material, orientirovka apparati.

Asosiy matnda: nazariy va faktik materiallar bo'lib, tariflash va tushuntirish xarakterida bo'ladi. Qo'shimcha matnda: (spravochniy) malumotnoma material beriladi. Aniqlovchi-tushuntirish matn o'ziga qushimchalarni, kommentariyalarni oladi.

Matndan tashqari komponentlarga savollar va topshiriqlar-yani uzlashtirishni tashkil qilish apparati kiradi.

O'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish (2 soat).

Reja:

1.O'quvchilarda tarixiy bilim shakllantirishda tarixiy tasavvurning ah'amiyati.

- a) Tarix o'qitishda faktlarning roli.
- b) Tarixiy tasavvurlarning shakllanish uslublari, ularga tasnifnoma.

2. Tarixiy bilim shakllantirishda tarixiy tushunchalarning roli.

- a) Tarixiy tushunchalar va ularni klassifikatsiya qilish
- b) Tarixiy tushunchalarni shakllantirish usullari.

Adabietlar:

1. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, "Universitet", 1999
2. Goar P.V. Povishenie effektivnosti obucheniya istorii v shkole.M., 1988
3. Pospelov N, Pospelov I. Formirovanie mislitelnoy operatsii u starsheklassnikov. M., 1989
4. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy talim maktabida o'qitish metodlari.T., 1990
5. Sadiev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.T., 1993.

a) O'zbekiston Respublikasi "Talim tug'risida" gi qonunining 9-moddasida "Umumiy talim uzluksiz davlat talimi tizimida asosiy bug'in bo'lib, talim oluvchilar ilmiy bilim,

meh'nat va boshlang'ich kasbkor ko'nikmalari, ishbilarmanlik asoslarini egallashlarini, shuningdek o'z ijodiy qobiliyatlari va manaviy fazilatlarini rivojlantirishlarini taminlaydi", - deyiladi. Umuman olganda maktabda O'zbekiston xalqlari tarixi o'qitishning asosiy vazifasi-o'quvchilarga tarix fanidan puxta bilim berish, shu bilimlarni amaliyda qo'llanish ko'nikmalari va mah'oratini h'osil qilish, duneqarashini shakllantirishdan iborat.

O'rta umumtalim maktablarida o'tiladigan tarix kursining bazi bir vazifalarini uslubchi A.A.Vagin qo'yidagi bosqichlarda ifodalab bergan: 1. O'quvchilar tarixiy jaraenni va tarixiy rivojlanishning h'amma bosqichlardagi ijtimoiy h'aetning turli tomonlarini xarakterlab beruvchi muh'im tarixiy asoslarni puxta uzlashtirib olgan bo'lishlari lozim.

2. Tarixiy asoslarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar tarixdagi asosiy voqealarni, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, h'amda ularning rivojlanib borishini aks ettiruvchi aniq tarixiy tasavvurlar tizimini h'osil qilishlari lozim.

3. O'quvchilar maktab tarix kursidagi muh'im tarixiy tushunchalarni puxta o'zlashtirish jamiyatning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini mukammal tushunib etishi, tarixni o'z eshiga qarab ilmiy asosda h'ar tomonlama bo'lib olishi lozim.

4. O'quvchilar tarix kursidan olgan bilim va malakalarini yangi tarixiy materiallarni o'rganishda, o'tmish va h'ozirgi zamon voqealarini tushunishda, kundalik ijtimoiy ishlarda, h'aetda qullay bilishlari lozim.

5. O'quvchilar tarixiy material bilan, h'ar xil materiallar, darslik, tarixiy h'ujjatlar, ilmiy ommabop-adabiet, siesiy risolalar, ro'znoma va oynomalar, xaritalar bilan ishlay bilishi, reja tuza olishi, tarixiy materialni tizimni va asosli baen qila bilishi, ayrim tarixiy mavzularda axborot bera olishi, maruzalar qila olishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar bevosita o'rta maktablarda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda h'am asos bo'la oladi, shuning uchun h'am o'quvchilar bilimini asosiy tarixiy faktorlar bilan boyitib chuqurlashtirib borish maktabda tarix o'qitishning eng muh'im vazifalaridan biri h'isoblanadi.

Masalan, o'quvchilar O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish jaraenida O'zbekiston jamiyat taraqqietining h'ar bir tarixiy bosqichida odamlar qanday yashaganini, h'ukmdorlikka asoslangan sinfiy davlatlar qanday vujudga kelganligini, ayniqsa O'rta Osie xalqlarining o'z ozodligi va mustaqilligi uchun chet el bosqinchilariga forslar, makedoniyaliklar, arablar, mug'ullarga qarshi olib borgan qah'ramonona kurashlarini, o'zbek xalqi bilan qardosh xalqlar o'rtasidagi qadimdan davom etib kelaetgan iqtisodiy, siesiy va madaniy aloqalarni, bulardan tashqari mustaqil O'zbekiston davlatining h'ozirgi davrdagi sanoati, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyati yutuqlarini, qisqasi, faqat Sharqda emas, balki jah'on tarixida o'zining mustaqil yo'liga ega bo'lgan davlatga aylanaetganligi va boshqa faktorlarni puxta bilishlari kerak.

Umuman olganda, tarixiy faktlarni o'zlashtirish talim-tarbiya jih'atidan h'ar qancha muh'im bo'lsa h'am, faktlarni bilishninng uzi o'quvchilarning tarixini bilish jaraenidagi birinchi bosqichdir.

a) Tarixni bilish jaraeni faktlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. Tarixiy faktlar 2 turda bo'lishi mumkin. Birinchidan yagona voqealarni aks ettiruvchi faktlar. Ular takrorlanmaydi. Masalan: a'q:o' yildagi "Loy jangi"; a'n'0g' yilgi "Ankara jangi" va h'okazo.

Ikkinchidan: tarixiy h'odisa turidagi faktlar. Ular malum bir tarixiy davr xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan: barshina va obrok bular feodalizm davriga xos bulgan

qarom deh'qonlarning to'lami. O' malum bir ijtimoiy tuzumga xos bo'lgan tarixiy fakt. Yana bir misol: Sanoat tuntarilishi-bu qo'l meh'natidan mashinaga o'tishni belgilaydigan jaraen.

b) O'quvchilarni puxta bilimlar bilan qurollantirishda tarixiy tasavvur va tushunchalarni h'osil qilish, qonuniyatlarni tushunib olishning ah'amiyati h'am kattadir. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan. O'quvchilarda h'odisalar, tarixiy jaraenlar h'aqida etarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bulgandagina tushunchalar h'osil bo'ladi. Tarix o'qitish jaraenida o'quvchilarning tassavurlari chuqurlashib borish natijasida tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitib, aniqlashtirib borishga erdam beradi. Tarix o'qitishda ayniqsa, O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy h'aetning yaxlit manzaralarini shakllantirishda jonli va erqin obrazlardan foydalanishning ah'amiyati kattadir.

